



## SHUKUR SA'DULLA IJODIDA XALQ BILIMDONIGA AYLANGAN SHE'RLAR TAHLILI

*Jo'rayev Sarvar Najmuddin o'g'li*  
*Shahrisabz davlat pedagogika Instituti*  
*Pedagogika fakulteti*  
*Boshlang'ch ta'lif yo'nalishi talabasi*  
**Tel: +9989997718540**

**Annotasiya:** Ushbu maqola Shukur Sa'dulla ijodida o'r'in olgan she'rlari o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayot yaqqol ochib bergenligi, kichkintoylar ijodkoriga aylanganligi, haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatan, syujet, tamal o'yinchoq, jo'shqin, tabiat

Shukur Sa'dulla she'rlari o'sib kelayotgan yosh avlodni kitobxonlarni to'g'rilikka va ertak dostonlari esa sadoqatli fidokor kishilarining kamol topishiga qiyoslanadi. Uning hikoyalari o'sha davrda bolalar hayoti yozilgan pyesalari har bir yoshlarning qalbini larzaga solishi bilan yosh bolalarning qadirdon yozuvchisi bo'lib qoldi. Shukur Sa'dulla 1912-yil yanvar oyida Jizzax shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi, boshlang'ich ta'lifni Narimonov nomidagi maktabda tahsil oladi. 1924-yil Samarqand pedagogika bilim yurtida so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat universitetida o'qiydi. Quvnoq va jo'shqin asarlar kuychisi bo'lgan Shukur Sa'dulla ko'plab she'r, qo'shiq ertak -doston peyesalari kichik yoshdag'i bolalarga bag'ishlangan. Shukur Sa'dulla tabiat kuychisi sifatida ham e'zozlanadi. Shoiring ko'plab she'rlarida tabiatga bo'lgan his tuyg'ularidan kelib chiqqan holda mакtab yoshdag'i bolaning hayotga olib kirish ularda tabiatga bo'lgan qiziqishini orttirish to'g'risida .

— Ekin o'sdi yerdarda,  
 Bug'doy pishdi qirlarda  
 Poliz to'la bodring,  
 Bog'bon, tez uzib bering!  
 — Sabr qiling siz andak,  
 So'yib beray handalak.

Bunda shoir vatanimizda mehnatkash insonlarning yerdardan turli xil mevalar pishirib xalqimiz dasturxoniga noz-nematlar bilan ularashayotgan bog'bon dehqonlar haqida so'z boradi.



Buksangiz qayrilaman,  
Oyoqdan ayrılamан.  
Mayli o‘ynang erta-kech,  
Lekin ozor bermang hech

Yoshlik davrimizda o‘yinchoq o‘ynamagan bolalar bo'lmanan bo'lsa kerak hammamiz ham turli xil o‘yinchoqlarni o‘ynaganmiz.unga bog'lanib qolgan damlarimiz ham bo'lgan.Bu she'rda shoir bolaning tarbiyasiga qanchalik ta'sir etish Yosh bolalarning o‘yinchoq ozor bermasligi unga kerak bo'lsa uni erta-kech o‘ynashi haqida.Shukur Sa'dulla bolalarning o‘yin mashg‘ulotlari haqida ham ko‘pgina chiroyli, ta’sirchan she’rlar yozgan. Bolalar o‘yini bilan bog‘langan she'rlari bolalar uchun qimmatli asardir. Shukur Sa'dulla birinchi she'ri asosan kattalarga bo'ljalangan. She'rlari asosan o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotiy tassurotlari asosida shakllangan.Katta yoshdagi mavzusidagi she'rlar 1932-yil „Hayqiriq" nomi ostida Toshkentda nashr etilgan.

### AYIQ

O‘rmonda bo‘lganmisiz?  
Ayiqli ko‘rganmisiz?  
Ustida po‘stini bor,  
Pisand emas unga qor.  
Men uning naslidanman,  
Ayiqning aslidanman.  
Otamdan qoldi po‘stin,  
O‘scha po‘stin menga to‘n.  
Farqim shu: men qo‘g‘irchoq,  
Bolalarga o‘yinchoq!

Shukur Sa'dulla ayiq she'rda ayiqning tashqi ko'rinishi, hatto unga qor ham ta'sir etmasligi, u po'stin otasidan qolganligi haqida shoir oddiy bir qo'g'irchoq misolida bolalar tilida tushunarli va samimiyl, bolalarga mos va xos tasvirlanganligi, shoirning bolalar dunyosini chuqur bilimga ega ekanligi va izlanganligidan dalolat beradi.

### NINACHI

Bog'da uchar ninachi,  
Gulni quchar ninachi,  
Shisha kabi ko'zi bor,



Yum -yumaloq yuzi bor,  
Yozganda ikki qanot  
Xuddi ko'kda samolyot

"Ninachi" she'ri orqali shoir muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi haqida ko'rsatib bergen. Bog'da uchib yurgan ninachini gohida gulga qo'ngani, uning ko'zlarini shishaga qiyoslaganligi, u ikki qanoti yozganda xuddi samalyotning qanotiga osmonda uchayotganligini shoir bolalarga qiziqarli qilib tasvirlab o'tadi.

Shukur Sa'dulla "Lola va mushuk" "jo'jalar" "Bola va Turg'un" ",yomg'ir yog'aloq" kabi she'rlarida bolalar hayotiy va voqealariga boy ekanligini yosh kitobxonlarni parranda, hashorat va hayvonlar dunyosiga olib kirish ular haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish. Shukur Sadulla insonning yoshligidanoq kelajak tag'diriga hayot yo'liga bolaligidanoq tamal toshini qo'yish kerakligini takidlab o'tgan ijodkordir. shoirning she'rlari katta qismi asosan syujetli voqealarga boy hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Bolalar adabiyoti (Mamasoli Jumaboyev)
- 2.Ziyouz.com kutubxonasi.
- 3.Arboblar. uz